



## Qahva

Qahva turlicha: achchiq, shirin, sutli va hattoki bemaza bo`lishi mumkin. Har kimda o`zi afzal ko`rgan qahva turi bor. Menga esa qahva hayotiy tajribamni esga soladi. Nomi bilan ham (“Coffee & Life”) e`tiborimni o`ziga jalb etgan bu qahvaxonada esa men turli qahva navlarini tatib ko`rishni yoqtirardim. Aynan shu yerda “hayotiy tajriba”larimni orttirganman. Aynan shu yerda uchratganman va yo`qotganman, erishganman va qo`yib yuborganman, tabassum qilganman va azoblarimni achchiq qahva bilan yengishga uringanman. Ishonavering, shakarsiz qora qahva odamlar o`zlariga o`ylab topgan muammolardan-da achchiqroq. Doim muammolar girdobida qolganingizda, shakarsiz qahva iching.

Bu qahvaxonada meni deyarli barcha ishchilar tanir edi. Ko`z oldimda to`rt nafar kassir, ikki nafar qahva tayyorlovchi va bir marta qandolatchi almashgan. Qandolatchi almashganini shokoladli tortdan bilib olgandim. Birdaniga tort juda mazali bo`lib qolgandi.

Bu qahvaxonada men g`oyalarimni bitirardim va... ba`zi insonlar bilan uchrashardim.

Men yolg`iz yashashni yoqtirardim. O`zim uchun pul ishlab topardim, o`zim uchun ishlatardim, o`zim uchun pishirardim, hammasini o`zim uchun qilardim. Ammo keyinchalik, bir kuni ishdan keyin uyimga kelib, uyda ham ishni davom ettirish uchun kompyuterimni yoqar ekanman, o`z oilam bo`lishini istab qoldim. Bu his balki kompyuterim turgan ish stolidagi jajji jiyanchalarim rasmi tufayli paydo bo`lgandir?

“Qachon menga ham baxt kulib boqadi-yu, sening ham farzandlaringni ko`ra olaman? Qilmishlaringga yarasha jazoingni olishing kerak. Kichkinaligingda meni ko`p tashvishga qo`yarding.” – bir paytlar jiyanchalarimga bo`tqa tayyorlay turib onam menga shunday degan edi. Onamning gapiga javoban esa shunchaki kulib qo`ygandim. Chunki meni yolg`izlik kutayotganini yaxshi bilardim. Hamda buni bajonidil qabul qilgandim.

Kelajagimdan xavotir olmasdim, chunki tanlovim nimalarga qanday ta'sir ko'rsatishini yaxshi tushunar edim. Harakatlarimni tushunardim va mas'uliyatni o'z bo'ynimga olardim.

O'zingni va qarorlaringni himoya qila olish juda muhim!

Bolaligimizda sut navini tanlay olmaymiz. Bunday qarorni biz uchun ota-onalarimiz yoki bizdan kattaroq va ancha tajribaliroq insonlar qabul qiladi. Biroq, biz o'zimiz ham qaror qila oladigan vaqtimiz keladi. Biz qahvani sut bilan yoki sutsiz, shakarli yoki shakarsiz tanlay olamiz. Faqatgina qarorimizni himoya qila olsak bo'lgani. Undan keyin esa har qanday natijani qabul qilish va bunda boshqalarni ayblamaslik kerak. Muammoli oilada dunyoga keldingmi, bu sening qaroring ham, aybing ham emas. Ammo u sening aybingga aylana oladi, qachonki sen shunday hayotni davom ettirishni tanlasang. Oxir oqibat, turli navlarga ega qahvalar orasidan sen o'z qahvangni tanlaysan. Men ham tanlagandim. Men latteni tanladim. Faqatgina qachon olib kelishlarini va qanday ta'mga ega ekanligini bilmasdim.

*(Qahvalarni tushunmasdim. Shuning uchun ham shaxsiy kundaligimga ushbu ichimlikning turi va u bilan bo'liq bo'lgan kechinmalarim haqida yozishga qaror qildim.)*

## Latte

Erta tongdan yomg'ir yog'ardi. Buyurtmamni o'z vaqtida topshirib, reja qilganimdan ertaroq ishlarimdan bo'shab oldim. Bu esa faqat bir narsani: o'zim bilan suhbat qurishimga vaqt borligini anglatardi. Qanday ajoyib. "Coffee & Life"ga kirdim. Qahvaxonada jazz yangrardi, odamlar esa har doimgidan kamroq. Buni tashqaridagi ob-havo bilan tushuntirsa bo'ladi. Bu yerdagi ozchilik ham men kabi shunchaki ishlab olish uchun kirgandek. Yomg'irdan sochlarim kamzulim kabi ivigan. Soyabonni yoqtirmayman. Shuning uchun ham shunchaki yomg'irpo'sh bilan himoyalangandim. Odatda doim bo'sh bo'ladigan sevimli joyimga o'tirdim. Sumkamdan kundaligim, komyuterim va ruchkamni chiqardim. Yonimga ofitsian qiz ham keldi. Yangi shekilli.

– Nima istaysiz?

– Latte va... mevali pirogdan ham bir bo'lak, iloji bo'lsa.

– Albatta. Yana biror narsa kerakmi?

–Yo`q, rahmat.

Bir necha daqiqalardan so'ng u mening buyurtmam bilan qaytib keldi.

Kundaligimni ochib, unga ilk satrlarni yoza boshladim:

“Latte – usti quyuq sutli ko`pik va meva qiyomli, sutli espresso. Yoqimli hidga ega. Buvimning bog`ini eslatib yubordi. Olma daraxtlari, uzumlar, atirgullar... tonggi qushlar sayrashi...”

– Oldingizga o'tirsam, maylimi? – ro`paramda baland bo'yli, yorqin jigarrang sochli va jigarrang ko`zli yigit turardi. Bundan tashqari uning ko`k ko`ylagi yoqasi ostidan tatuировka ko`rinib turibdi. – Xo'sh, o'tirsam bo'ladimi? Boshqa joylar band, men esa qahva ichib, ishimni tugatib olmoqchi edim.

– Ha, albatta.

“Qahvaning ko`rinishi ham juda yoqimli, ta'mi takrorlanmas, sutning quyuq ko`pigi esa og`izda eriydi, ovozi esa...”

– Latte juda yoqadimi? – so`radi ro`paramda o`tirgan va kompyuterida nimalarnidir yozayotgan yigit.

- Birinchi marta tatib ko`ryapman. Ammo, ha, juda yoqdi.
- Keyin esa ofitsiant qiz uning ham buyurtmasini olib keldi.
- Menga esa espresso yoqadi. Yaxshi chalg`ita oladi.
- Nimadan?
- Barcha razilliklardan.

Biz shunday qilib tanishib qolgan edik. Men o`zimning latte qahvamdanda rohatlanardim, u esa espresso ichardi. Oyna ortida yomg`ir yog`ardi. Yomg`ir tomchilari esa ortidan iz qoldirib oynadan oqib tushardi. U latte kabi ajoyib edi. Shunday qilib latte va u bir birlarini ifodalaydigan bo`ldi.

Uchinchi yomg`irli kun ham o`tib borardi. Biz esa yana qahvaxonada o`tirib ishlardik. Menda yana meva qiyomli latte. Unda espresso, qahvaxonada esa blyuz yangrardi.

– Hamma yerda yolg`on, – dedi u birdan, kompyuteridan ko`zini uzmay yozar ekan. Biroq uning yuzida jahldan iz ham yo`q edi. Ammo uning xayollarida nimalar sodir bo`layotganini bilolmasdim. U yashirin, kamgap va juda e`tiborli inson. – Va`da berishadi, ammo bajarishmaydi. Nima ham farqi bo`lishi mumkin? Odamlarga natija va muhlat allaqachon muhim bo`lmay qolgan. Muhimi – va`da! Odamlar o`zlarini kimdir biror ishni bajarishga va`da bergani bilan ovutishadi. Kompaniyalar oylik maoshlarni oshirishni va`da berishadi, keyin yana va`da beradi, keyin yana...

– Odamlarga yolg`on haqiqatdan ko`ra ko`proq yoqadi. Nimanidir o`zgartirish qiyin. Odamlarga umid bilan yashash yoqadi, bu ularga kuch, kelajakka bo`lgan ishonchni beradi. Bu xuddi qorong`ulikda yoqilgan shamga o`xshaydi. – deya javob berdim olchali pirogni tishlab.

– Sen haqsan. Ammo “shakar” aslida “tuz” ekanligini bilganingda, buni qabul qilish qiyin bo`larkan. Natijada hayotni ma`nosini ham yo`qotib qo`yasan. “Bundan ma`no yo`q” degan gapni o`zingga cheksiz takrorlayverasan. Hech narsada ma`no yo`q. – dedi u xotirjamlik bilan qahvasini ichib.

Mana, hayotdan ma`zo izlasang nima bo`ladi: uni yo`qotasan. “Hayotdan ma`no yo`q” deb nomlangan jarlikka qulay degan paytim, o`zimni qo`lga olishga va o`zimni yo`qotib qo`ymaslikka qaror qildim. Shunchaki hayotimni va undagi borini: onamni, akamni va uning ikki nafar ajoyib qizaloqlarini, kitoblarni, ishimni, mana shu qahvaxonani va unda doim yoqimli hid taratib turadigan qandolatchilik mahsulotlari-yu qahvalarini qadrlashda davom etaman.

Biroq, bu bizning so`nggi suhbatimiz edi. Shundan keyin u g`oyib bo`ldi. Izsiz, hech qanday nom nishonsiz g`oyib bo`ldi. Nega bunday bo`lganligini bilmadim. U haqda qanday qilib bilishim ham mumkin, axir, uning hattoki ismini ham bilmayman. Bu haqiqat. Ilk marotaba tanishganimizda bir-birimizning ismimizni bilish, ishlashchalik muhim emas deb hisoblagandik. Nima bo`lganda ham, uning yo`qligidan xafa edim. Go`yoki meni bu kichik, ammo katta muammolari bo`lgan shaharchada faqatgina u tushuna oladigandek tuyular edi. U men uchun latte kabi yoqimli, ajoyib va yagona bo`lib qolgandi.

## Espresso

Negadir ortiq yolg'iz yashamaslikka qaror qildim. Onam buni ko'zlarimga qarashi bilanoq tushunda va ikki kun ichida uchrashuv ham kelishib qo'ydi. Men esa qarshilik ham qilmadim. Shunday qilib men yana qahvaxonada o'tirardim va kundaligimga espresso haqida yoza boshladim: "Espresso – tilladek tovlanadigan ko'pikli, kuchli qora qahva. Juda kuchli. U buni qanday qilib ichgan ekan-a?"

Uchrashuvga kelishi kerak bo'lgan yigit kech qolayotgan edi. U naq bir soatga kechikayotgan edi. Bu vaqt ichida men yana bir chashka qahva va malinali pirog buyurib ham ulgurgandim. Qahvaning bu turi kerak vaqtda yaxshigina chalg'ita olar ekan. Malinali pirogning hidi esa meni tinchlantirardi. Malinali pirogdan bir bo'lak og'zimga solishim bilan qo'shni stolda o'tirgan to'rta qizning boshqa bir qizni g'iybat qilgan shovqinini eshitmay ham qo'ydim. Hatto oyna ortidagi odamlarning har tomonga shoshayotganini ko'rmas qo'ydim, ammo osmondan xuddi paxta yumaloqlari kabi tushayotgan qorni ko'rardim. Qahvaxonadagi blyuz esa muhitga xotirjamlik va ilhomga to'yingan o'zgacha jozibani qo'shib turardi. Bunday muhit men istaganchalik uzoq davom etmadi. Ro'paramda men allaqachon kutayotib esimdan chiqarib yuborgan inson paydo bo'lgandi.

– Kechikkanim uchun uzur, – dedi u paltosini yechib ilgakka ilar ekan. – Umid qilamanki, ko'p kechikmadim.

– Unchalik emas, – dedim xushmuomalalik bilan. Aslida, xushmuomalalik xuddi vaqtga o'xshaydi. Vaqtni o'zing istamagan narsalar uchun sarflasang, u ham senga xuddi shunday javob beradi. Uchadi-yu ketadi. O'zingga yoqmagan ish uchun vaqt sarflab ulgurmasingdan, o'zing istagan ish uchun vaqt ham qolmaydi. Xushmuomalalik ham xuddi shunday. Men ham hozirgina o'zimga sarfladim.

U xuddi men kabi o'ziga limonli choy buyurtma qildi. Suhbatimizning unchalik qiziq bo'lmagan joyini tashlab ketgan holda qisqa qilib ta'rif berib o'taman: Unda men haqimda barcha kerakli ma'lumotlar bor edi (ba'zan kim yaxshiroq ishlarkan: FQB mi yoki onalarmi, deb o'ylanib qolaman). U tadbirkor ekan. Bir necha bor inqirozga uchragan, ammo yana o'zini tiklay olgan tadbirkor. Xato qilish yaxshi. Ammo qachonki undan o'zing uchun xulosa chiqara olsang, bunga kuching yetsagina yaxshi. Va yana: hammasi o'zingga bog'liq.

Ammo kimdir senga qanday yashash to'g'ri yoki nimaga ishonish-u, nimaga ishonmaslik kerakligi haqida o'rgata boshlasa-yu, o'zi oddiy uchrashuvga ham kech qolsa, bunday inson bilan bog'lanmaslik kerak.

– Men tadbirkorman. Men uchun vaqt o'ta muhim. U menga pul olib keladi. – dedi u. Qiziq, o'zining vaqtini senikidan muhim deb biladigan inson hurmat qilishga arzirmikin? O'z vaqtini saqlab qolish uchun, u menikini tortib olmadimikin? Uni bunchalik ko'p kutganim mening xatoyimmi yoki onamga "albatta, uchrashaman" deb va'da bergan va mas'uliyatni o'z bo'yniga olgan vijdonimnikimi? – Umuman, vaqtni behudaga sarflashni yomon ko'raman. Adashmasam, sen kitob dizyneri bo'lib ishlaysan. Qancha maosh olasan? – uning ovozi hurmatsizlikni sezdim. Uning har bir savoli birin-ketin u bilan kelajagim faqatgina barbod bo'lishini, tushkunlikni, oila buzilishini isbotlar edi. Seni nima kutayotganini bilganingda esa bu ishni qilmaganing ma'qul.

Biz bir-birimizdan farq qilardik. Uni pul va yana-da ko'proq pul ishlab topish qiziqtirardi. Men esa oladigan maoshimdan mamnun edim. Asosiysi mening ishimda

menda butunlay ozodlik bor edi. Agar o`zimga yetadiganiga erisha olsam, undan ko`pi nega kerak? Aftidan uni to`xtatib bo`lmasdi.

– Maoshim yetarli. Menga ma`qul. Nashriyot yetarli oylik beradi. Ammo, albatta “ma`lum vaqt uchun”. Ya`ni men ham shunchaki vaqtimni bir yigitni kutish uchun sarflay olmayman, – mening xayollarim o`z vazifasini bajargandi: tashqariga otilib chiqdi. – Agar biz bir-birimiz tomon qadam qo`ysak, ikkimiz ham qulaymiz. Bu ishni qilmasak, ikkimizga ham yaxshi bo`ladi.

Jimjitlik. U tadbirkor bo`lgani qaysidir ma`noda juda yaxshi – odamlarni yaxshi tushuna oladi. Uning nigohlari buni isbotlardi. U mening so`zlarim va kesatichni juda yaxshi tushunib olgandi. Ammo:

– Senga baxt tilayman, – dedi u nihoyat uzoq jimlikdan so`ng. – Baxtli bo`l.

– Mag`rurligingning chegarasi yo`q. U senga meni baxtsiz deb ko`rsatyapti hattoki. Faqat, men baxtliman. Bundan tashqari, sening tilaklaringning hech qanday ahamiyati yo`q. Mening baxtim faqat o`zimga bog`liq.

Bu so`zlardan keyin u shunchaki turdi-yu ketdi. Ofitsiant qiz yonimga keldi:

– Yana biror narsa istaysizmi?

– Latte, iltimos.

## **Irlandcha qahva**

Hayotimda “biroz”gina kech qolgan, ammo baxtinga uni tez tark etgan janob “tadbirkor” paydo bo`lganidan so`ng bir necha kun o`tdi. Men esa “U” haqida o`ylardim: O`y-xayollari labirintida xotirjamlikka erisha oldimikin? Umuman, u yerdan chiqa olarmikin? Men-chi? Meni tushuna oladigan, kasbimni qo`llaydigan va shunchaki yonimdali bilan menga baxt ulasha oladigan insonni topa olarmikinman? Va shu inson menga yo`qligi bilan azob bera olarmikin? O`y-xayollarimga sho`ng`ish meni azoblashini sezganim zahoti uni to`xtatish kerakligini tushundim – o`ylashni to`xtatish kerak.

Bugunga yana bir uchrashuv belgilangan. Qolaversa, men bu uchrashuvdan hech narsa kutmasdim. Chunki umid, odatda, aldamchi bo`ladi. Biror narsaga umid qilganingizda, siz istaklaringiz haqiqatga aylanishiga umid qilasiz. Bu esa voqelikka umuman zid. Demoqchimanki, “tuz” aslida “shakar” bo`lishini kutish va shunday bo`lib chiqmaganidan qiynalish – bu tentaklik.

Ob-havo yoqimli bo`lganligi uchun biz sayr qilishga qaror qildik. Bog`da uchrashishimiz kerak edi. Bog`ga kirib borar ekanman, daraxtlarning xuddi ertaklardagidek ko`rinishidan zavqlanar edim. Daraxtlar oppoq qor bilan qoplangan va quyosh shu`lasida shoxlariga xuddi olmos sepilgandek yarqiqardi. Oyoq ostida esa qor g`archillaydi. Shu ondayoq akamning qor g`archillashi bilan bog`liq hazili esimga tushib ketdi: “Aka, nega yurayotganimizda qor g`archillaydi?”, akamning javobi esa meni hayratda qoldirgandi va toki beshinchi sinfga o`tgunimga qadar uning javobiga ishonib yurganman. Akam: “Bir qorni bosganimizda, uning suyaklari sinadi. Ayniqsa beli. Shunga g`archillaydi” degan edi o`shanda.

O`sha suhbatni eslab, beixtiyor jilmaydim. Meni kulrang palto kiygan uzun jentlmen kutib turardi. Hayriyat, bunisi kech qolmadi.

Sizga aytсам, onalar FQBdan-da yaxshiroq ishlaydilar!

– Hokim o`rinbosari bo`lib ishlash juda qiyin, – dedi u birdan telefonida tez-tez bir narsalar yoza turib. Oyoqlarimiz ostida esa qorning “suyaklari sinardi”. – Doim ishimiz ko`p.

– Farroshlarning ham ishi ko`p. Lekin negadir mansabga qarab qadrlaymiz.

U menga hayrat bilan qarayotganini sezdim. Chunki qorni bosib “suyaklarini sindirmay” qo`ygandi.

– Tozalash uchun aqlni ishlatish shart emas.

Men to`xtadim va unga qayrilib qaradim:

– Sizlar o`zingiznikini ishlatasizlarmi?

Kechqurun telefon orqali onamning uzoq tanbehlarini eshitdim: “U hokim o`rinbosari. Sen esa uni yerga urishga hadding sig`di. U yaxshi kuyov bo`lardi.” Bo`la olardi. Ammo bo`lmadi!

Ertasi kuni yana qahvaxonada onamning so`zlarini va “o`rinbosar”ni eslab o`tirardim. Ofitsiant qiz buyurtmamni olib keldi. Men qahvadan bir xo`plab, kundaligimga qahva haqida yoza boshladim:

“Irlandcha qahva: Irlandiya viskisi, shakar va ko`pirtirilgan qaymoqli, kuchli qahva. Qiziq nom, nafis ta`m, tarkibi mening hozirgi holatimga juda mos”.

Yana “U” haqda o`ylay boshladim. Natijada esa qahva ortida yashiringan viski ichar edim. Uni sevganman yoki u bilan baxtli bo`lgan bo`lardim, deb aytolmayman. Men uning hattoki ismini ham bilmayman. Faqatgina u bilan birga “Coffee & Life”da qahva ichganimizda sevinchni his etardim va lattedan bahra olardim. Qiziq, u o`zining espressosidan bahra olganmikin?

Biz turli mavzularda suhbat qilardik. Kitoblarni, mening ishimni muhokama qilardik, undan maslahatlar olardim, o`zinning maslahatlarimni berardim. U haqda juda ham kam bilardim. Juda ham kam...

“Kop`roq narsani bilsang, yashash qiyinlashadi. Bilganingni bilmagan inson bilan yashash undan-da qiyin. Axir, u inson o`z bilimi va tajribasidan kelib chiqib fikr yuritadi. Ammo seni bilganlaring azoblayveradi. Biroq, sendan-da ko`proq biladigan inson bilan yashash yana-da qiyinroq. Bunday inson oldida sen o`zingni hech narsani bilmaydigan, tushunmaydigandek va hattoki ahmoqdek hisoblaysan. Keyin esa yana-da ko`proq o`qiy boshlaysan, yana-da qattiqroq azoblanasan. Orada muvozanatni saqlash esa – anchayin mushkul ish. Ancha ter to`kishga to`g`ri keladi” – bu uning men yomg`ir ovozidan ilhomlana olgan, qahvaning hushbo`y hididan bahramand bo`la olgan, qarshimda esa u kompyuterida ishlab o`tirgan kuz faslining ajoyib kunlaridan birida aytgan so`zlari edi.

Endi esa irlandcha qahva ichib o`tirardim...

Bir necha kundan so`ng “o`rinbosar” bilan ikkinchi uchrashuvimiz bo`ldi. Uchrashuv sababidan hayron qolgandim. Onamning gaplariga qaraganda, u menga ikkinchi imkoniyat berishga qaror qilgan emish va onamning uqtirishicha, men uni qo`ldan chiqarmasligim kerak ekan. Men, albatta, bunday imkoniyatdan xursand bo`lgan bo`lar edim, agar unga nisbatan nafratdan boshqa biror his sezganimda.

Shunday qilib qahvaxonada o`tirardim.

– Nima istaysan? – so`radi u menyudan ko`zini uzmay. Butun dunyoda bolalar baxtli bo`lishlarini, jinoyatchilar qilmishlariga yarasha jazo olishlarini istayman, odamlar

propaganda, mafkura va stereotiplar qurboni bo`lmasliklarini istayman, hozir sening o`rningda ro`paramda Lee Pace o`tirishini istayman. – Xo`sh nima istaysan? – so`radi u yana meni “istayman”larimdan chalg`itib.

– Menga meva qiyomli latte va bir bo`lak olmalı pirog.

U ham o`ziga xuddi menikidek buyurtma berdi. Ofitsiant qiz bizning buyurtmalarimizni tayyorlaguniga qadar, u meni qarori sababi bilan tanishtira boshladi.

– Mening onam, – deb boshladi u. – Sening onang bilan ancha yaqin ekanlar. Va u aynan sen ularni kelini bo`lishingni istayaptilar. Men esa sening kitob dizayneri sifatida ishlashingga ko`z yumishga tayyorman.

Tadbirkordan ham mag`urroq chiqdi. U onalar instinkti mutlaq to`g`ri ekanligiga ishonardi va uning onasi nimanidir istashi yoki “shunday qilsa, to`g`ri bo`ladi” deb o`ylashi u uchun qonun edi. Tabiiyki, men onalarga quloq solish tarafdoriman, ammo har kim xato qilishi mumkinligini unutmashimiz kerak! Unga ham xuddi shunday dedim.

– Onalar ham, otalar ham, hamma xato qiladi. – U menga jahl bilan qaradi, noo`rin gaplarni aytayotganimga ishonardi. Balki, qaysidir ma`noda u haqdir, balki umuman mening gaplarim hammasi mantiqsizdir, balki umuman hech narsa ma`noga ega emasdir. Nega bunday bo`lmasin? Qahvaxonada baribir birga yashamaydigan odaming bilan gaplashib, unga nimanidir tushuntirishga urinishdan ma`no nima? Shunda bu suhbatdan mantiq nima? Balki men shunchaki uning onasining qarashlarini hurmat qilgandirman? Shunga qaramasdan, u baribir taslim bo`lishni istamasdi. U meni instinktlar to`g`riligiga ishontirmoqchi bo`lardi va onalik instinktiga bo`lgan munosabatimni ham o`zgartirishga urinardi. Faqat men mantiqsiz tushunchalarni singdirish tarafdori emasman. Va shunday bir-birimizga qarab, qahva ichib, “sen nohaqsan” deb aytib o`tiraverardik. Ikkala tomon ham nohaq bo`lganida esa g`olib bo`lmaydi. Nima bo`lganda ham, na u bilan va na tadbirkor bilan kelajagimni ko`ra olmagandim. Ikkovi ham o`zlarining qarorlariga ishonar, ammo o`zgalarning fikrini hurmat ham qilmasdi.

Hokim o`rinbosari lavozimida ishlab, u pastroq lavozimda ishlaydiganlarga bemalol aql o`rgata olishi mumkinligiga ishonardi. Men esa erkinlikni yoqtirardim va kam hollarda bo`ysunardim.

Shu yerda to`xtatishga va qayta uchrashmaslikka qaror qildim.

– Oyingga uzurimni yetkazib qo`y, – dedim unga xayrlashuv oldidan. Unga va uning onasiga rad etganim uchun o`zimni aybdor his etishim kerakmi, yo`qmi, bilmadim, ammo rozi bo`lganimda o`zimni baxtsiz his etgan bo`lardim. Butun umr baxtsiz yashagandan ko`ra, hozir o`zimni aybdor his etganim yaxshi. – Va onangga men senga mos emasligim yoki o`zingga ma`qulini tanlab aytishing mumkin.

Onam meni qattiq urishdi. Hokim o`rinbosariga rad javobini berganim uchun emas, balki ikkinchi yigitni ham rad etganim uchun. Onam hayotimni shunday davom ettirishimdan va kun kelib qarilikda yolg`iz qolishimdan xavotirda edilar. Onamni o`zlari istaganchalik, yoki men istaganchalik men bilan birga uzoq qololmasliklari haqidagi o`y-xayollari tinch qo`ymasdi. O`zimni butunlay ta`minlay olishimga qaramasdan, onam baribir xavotir olaverardi.

Kunlar o`tib, nimagadir “Coffee & Life”ga bormay qo`yganimni sezib qoldim. Tashqariga ham chiqmay qo`ygandim. Hoynahoy o`zim ham hayotim shunday davom etishidan, iliq quchoqni his etmay yashashimdan xavotirga tushganim sabab bo`lishi

mumkin. Akamning o`z oilasi bor, onam bilan esa yasholmayman, chunki mening borligimning o`zi onamni qiynashi mumkin edi. Nima ham qila olasan?

Eng so`nggi buyurtmamni tugatib, uni nashriyotga olib bordim. Aynan shu bajargan ishim bilan avvalgilariga qaraganda ko`proq faxrlandim. Bu safargi buyurtmam eng qiyini va eng katta mas`uliyat talab qilgani edi. Chunki bu kitob yosh, hali dunyo tanimagan yozuvchiga tegishli. Aynan shu sabab ham uning kitoblarini odamlar o`qimasliklari mumkin. Shunga qaramasdan, nashriyotimiz kitob dunyoni ko`rishini istadi. Men esa odamlar kitobni ko`rishi bilanoq unga qiziqib, shu ondayoq sotib olishlari uchun qattiq mehnat qilishga majbur edim. Kitob uyqusiz o`tgan tunlarimga arzirdi. Nashriyot esa ishimni ko`rishi bilan uni ma`qulladi va kitobni chop etishni boshlab yubordi.

Notanish yozuvchining kitobi butun yurt bo`ylab kitob do`konlarini bezashi bilan nashriyotimiz kitob ustida ishlaganlar uchun alohida bazm uyushtirishga qaror qildi.

## Asalli raf

Bazmga borishdan avval yana bir bor “Coffee & Life”ga kirib shirin qahva ichishga qaror qildim. Bajarilgan ish uchun g`urur meni baxt bilan qurshab olar va meni shirinlikka undardi. Asalli raf buyurdim. Kundaligimni ochib, unga yoza boshladim:

“Asalli raf – bu qahvaning qaymoq bilan ko`pirtirilib, asal bilan to`yintirilgan turi. Shunchaki ajoyib”. Shokoladli quymoqlar esa takrorlanmas ajoyib quvonchni qo`shardi. Bu yerda zifoyatni tugatib, bazmga yo`l oldim.

Restoranga kirishim bilan nigohlarim birinchi bo`lib uni ko`rgandi. Mening “Latte” qahvam. Hayratga tushgan va o`zimni yo`qotib qo`ygan edim. Butun fikr-u xayolim “Qanday qilib? Nega u bu yerda? Bu jamoada u nima qilyapti?” kabi savollar bilan aylanib qolgan edi. So`ngra doim go`zal kiyinadigan bosh tahrirchimiz kelib bizni tanishtira boshladi.

– Emili, go`zalim, tanish, bu – bestsellerimiz muallifi, – dedi u suyunib va unga g`urur bilan qarab. – Jon, bu – Emili, kitobing dizayneri.

Xayolan “Jon”, deb takrorladim.

– Emili, go`zalim, nega sen unga xuddi arvojni ko`rib qolgandek qarayapsan? – so`radi tahrirchimiz.

Men haqiqatda hayratga tushgandim. Men ustida mehnat qilgan kitob unga tegishli edi. Shunday qilib biz bir-birimizning ismimizni ham bilib olgandik, bazmni ham birga o`tkazdik.

Mening kunim asalli rafga aylanib qolgandi. Axir, u menga endi hech ham ajralmaslikni taklif etdi, men esa buni katta mamnuniyat bilan qabul qilgandim.

**Tarjimon:** Lily [www.t.me/lilysblog](http://www.t.me/lilysblog)

**Tahrirchi:** [www.t.me/badiiyiqtibos](http://www.t.me/badiiyiqtibos)